

DUNYOVIY VA DINIY BILIMLAR MUTANASOBLIGI**Mirzarahimov. B****Ikromova Muhlisa****Nabijonova Ma'muraxon***Farg'ona davlat universiteti talabalari*

Annotatsiya: *Mazkur maqola dunyoviy va diniy bilimlarning mazmun-mohiyati, ularning o'zaro bog'liqligi hamda jamiyat taraqqiyotidagi o'rni yoritilgan. Dunyoviy bilim insonning ilmiy tafakkuri va amaliy faoliyatini rivojlantirsa, diniy bilim uning ma'naviy ahloqiy komolotini taminlashi ta'kidlanadi. Shuningdek Abu Nasr Farobiy va Imom Buhoriy kabi allomalarning ilmiy me'rosi misolida bu ikki turdagi bilimning uyg'unligi ko'rsatilgan. Maqola dunyoviy va diniy bilimlarning mutanosibligi komil insonni shakllantirish hamda jamiyat barqarorligini ta'minlashda muhim omil ekanligi xulosa qilinadi.*

Kalit so'z: *Din, diniy bilim, inson, dunyoviy bilim, inson ongi, e'tiqod, ta'limot, mutanosiblik, ma'rifat, ahloq, ilm-fan, ilmiy me'ros.*

KIRISH

Insoniyat tarixi davomida bilim ikki yirik tarmoqqa bo'linib rivojlangan: diniy va dunyoviy. Agar diniy bilimlar insonning ruhiy olami va oxirati haqida qayg'ursa, dunyoviy bilimlar biz yashab turgan moddiy dunyoni tushunish, uni boshqarish va inson hayotini farovon qilishga xizmat qiladi.

Dunyoviy bilim nima?

Insoniyat yashab qolish uchun tabiatni kuzatishga majbur bo'lgan. Ov qilish, ekin ekish va kasalliklarni davolash uchun dindan tashqari amaliy tajriba kerak edi. Vaqt o'tishi bilan odamlar hodisalarni "xudolarning g'azabi" deb emas, balki aniq sabab-oqibat (masalan, yomg'ir yog'ishi uchun bulut kerakligi) bilan tushuntira boshlaganlar. Shunday qilib, kundalik ehtiyojlar va qiziquvchanlik natijasida diniy qarashlardan mustaqil bo'lgan fanlar — dunyoviy bilimlar shakllangan.

Dunyoviy bilim- bu moddiy olamni, tabiat qonunlarini, jamiyat va inson faoliyatini ilmiy usullar (kuzatish, tajriba, mantiq) yordamida o'rganish natijasida hosil bo'ladigan bilimlar majmuidir. Soddaroq aytganda, bu biz yashab turgan dunyoni tushunish, unda yashash va uni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan fandır.

Dunyoviy bilimlarning mohiyatini quyidagi yo'nalishlar orqali chuqurroq tushunish mumkin:

1. Tabiat va koinotni o'rganish. Dunyoviy bilimlar bizni qurshab turgan borliqning qanday ishlashini tushuntiradi. Aniq va tabiiy fanlar: Matematika, fizika, kimyo va biologiya kabi fanlar tabiat hodisalarini isbotlar asosida o'rgatadi. Masalan, tortishish qonuni yoki hujayra tuzilishi dunyoviy bilimning mahsulidir.

Texnologiya: Muhandislik va IT sohalari ushbu fundamental bilimlarni amaliyotga tatbiq etib, hayotimizni osonlashtiradigan asbob-uskunalar yaratadi.

2. Jamiyat va inson munosabatlari Insonlarning o'zaro muloqoti, davlat boshqaruvi va iqtisodiy jarayonlar ham dunyoviy bilimlar doirasiga kiradi. Gumanitar fanlar: Tarix, tilshunoslik, sotsiologiya va huquqshunoslik jamiyat qoidalari va madaniyatni shakllantiradi. Iqtisodiyot: Resurslarni to'g'ri taqsimlash va farovonlikka erishish yo'llarini o'rgatadi.

3. Tajriba va isbotga asoslanish Dunyoviy bilimning asosiy xususiyati — uning doimiy o'zgaruvchanligi va rivojlanishidir. Diniy bilimlardan farqli o'laroq (ular ko'pincha o'zgarmas e'tiqodga asoslanadi), dunyoviy bilimlar yangi kashfiyotlar va tajribalar orqali boyib boradi yoki eskirganlari inkor etiladi. U har qanday millat, din yoki irq vakili uchun bir xil mantiqiy asosga ega bo'ladi (masalan, "2+2=4" hamma uchun bir xil).

Diniy bilim nima?

Din – o'ta murakkab ijtimoiy hodisa. U o'ziga xos tarkibga ega bo'lib, kishilik jamiyatining uzoq davom etgan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti hosilasidir. Din kishilarning g'ayritabiiy kuchlarning mavjudligiga ishonishdan yuzaga kelgan. Zero, «din» so'zi arab tilidan olingan bo'lib, o'zbek tilida «ishonch», «ishonmoq» degan ma'nolarni anglatadi. Diniy bilimlarning tarixan tashkil topgan birinchi shakli ilohiyot (teologiya grekcha teos – xudo va logos – ta'limot degan ma'noni

anglatadi), ya'ni xudoni o'rganuvchi ta'limotdir. Dinga ilohiyot nuqtai nazaridan yondashuv dinni uning ichidan o'rganishdir, chunki ilohiyot vakillari dinni faqat xudoga ishongan kishi tushunishi mumkin deb hisoblaydilar. Hozirgi zamon dinlari murakkab tarkibiy qismga ega. Uning tarkibiy qismiga diniy ong, marosim va tashkilotlar kiradi. Diniy ong diniy dunyoqarash tarkibida muhim o'rin tutadi. Diniy ong diniy tasavvurlar, g'oyalar, his-tuyg'u va kayfiyatlarni ifodalaydigan qarashlar tizimidir. Dinni tarkibiy qismlari qatorida diniy ong ustuvor ahamiyatga ega, chunki diniy marosim va diniy tashkilot kishilar ongida va jamiyatda diniy tasavvurlarni mustahkamlaydi va saqlanib qolishiga ko'maklashadi.

Diniy bilim insoniyat ma'naviy olamining ajralmas qismi bo'lib, u shunchaki ma'lumotlar to'plami emas, balki hayotning mazmun-mohiyatini belgilovchi qadriyatlar tizimidir. Dunyoviy bilim bizga koinotning qanday tuzilganini va unda qanday yashashni o'rgatsa, diniy bilim nima uchun yashayotganimizni va qanday inson bo'lishimiz kerakligini tushuntiradi.

Diniy va dunyoviy bilimlarning uyg'unligini hozirgi kundagi o'rni

Zamonaviy dunyoda "Faqat dunyoviy bilimga ega inson — ma'naviyatsiz mashina, faqat diniy bilimga ega inson — dunyodan uzilgan shaxs" degan qarash ustunlik qilmoqda.

• Axloqiy fan: Bugungi kunda biologiya yoki sun'iy intellekt sohasidagi yutuqlar (gen muhandisligi kabi) diniy va axloqiy me'yorlar bilan nazorat qilinishi kerak.

• Ilm — e'tiqod nuri: Diniy ma'lumotlar ilm-fan faktlari bilan quvvatlanganda yanada mustahkam bo'ladi.

Shunday ekan biz dunyoviy bilimni bir kema deb bilsak diniy bilim uning kompasidir kema qanchalar zo'r va kuchli bo'lmasin kompassi bo'lmasa bir kun albatta qoyalarga urilib parcha-parcha bo'lishi muqarrardir

XULOSA

Dunyoviy va diniy bilimlarning mutanosibligi — bu zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishi va shaxs kamolotining asosiy shartidir. Ushbu ikki bilim sohasi bir-birini inkor etmaydi, aksincha, inson hayotining turli qirralarini to'ldiradi: dunyoviy bilimlar bizga moddiy farovonlik va intellektual salohiyat bersa, diniy-ma'rifiy bilimlar ruhiy poklik va yuksak axloqni shakllantiradi.

Tarixiy tajriba (xususan, Sharq Renessansi) shuni ko'rsatadiki, ilm-fan va e'tiqod uyg'un bo'lgan jamiyatlarda yuksak madaniy yuksalish yuz bergan. Bugungi globallashuv davrida ham ushbu muvozanatni saqlash o'ta muhimdir. Chunki ma'naviyatsiz taraqqiyot (faqat dunyoviy bilim) insonni "aqli mashina"ga aylantirsa, ilmsiz e'tiqod (faqat diniy bilim) mutaassiblik va jaholatga yetaklashi mumkin. Shunday qilib, dunyoviy va diniy bilimlarning mutanosibligi — jamiyatning ham moddiy, ham ma'naviy sog'lomligini ta'minlovchi yagona to'g'ri yo'ldir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Nasr Farobiy — "Fozil odamlar shahri".
2. Ma'lumot: Aql va vahiyning uyg'unlashtirish, fozil jamiyatda dunyoviy va diniy boshqaruv muvozanati haqida 82–90-betlar.
3. Shavkat Mirziyoyev — "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari".
4. Ma'lumot: Ma'rifatli islom va dunyoviy ta'limning jamiyat barqarorligidagi o'rni haqida 215–218-betlar.
5. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi materiallari.
6. Universitet va institut talabalari uchun darslik Falsafa N. Shermuxamedova